Yo'ldosheva E'zoza
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
Amaliy filologiya yo'nalishi
1 – kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7616424
https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7616424

Alisher Navoiy – mening bobom!

Annotatsiya: Hazrat Alisher Navoiy tavalludining 582-yilligi munosabati bilan yurtimiz bo'ylab keng tadbirlar nishonlanmoqda. Buyuk va betakror shoirimizning qilgan ishlaridan, tutgan amallaridan, amalga oshirgan savob ishlaridan biz o'rnak olishimiz kerak. Ul zotga munosib avlod bo'lish bizning katta burchimiz. Ijodlarini o'rganish davomida shunga amin bo'ldim: Alisher Navoiyning barcha asarlari, qilgan ishlari, adolati – hammasi faqat inson uchundir.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Hirot, tarix, Xuruoson, Husayn Bayqaro, obod qilganligi, savob ishlari, buyuk, e'tibor – ehtirom

Mir Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 582-yilligi yurtimiz bo'ylab keng nishonlanmoqda. Bunday buyuk zotni eslash, xotirlash, ulug'lash har birimizning insoniylik burchimizdir. Ul kishining ijodi, qilgan ezgu ishlari, savoblari barchamiz uchun ibratdir. Xalqimizdan chiqqan bunday buyuk zotlar doimo eslanishga arzigulikdir. O'zbekistonimiz uzra Alisher Navoiyning tavalludi keng bayram sifatida nishonlanishi ham bejiz emas. O'zbek xalqi shunday ulug' insonning avlodi ekanligidan faxrlanishi va ul zotga munosib davomchisi bo'lishi kerak.

Bugungi yoshlar uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti instituti tashkil etilgan. Buyuk shoirimizning izdoshlari uchun " Alisher Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi" joriy etildi. Navoiy ijodini o'rganish uchun ilmiy maktab va Xalqaro kengashlar o'z faoliyatini boshladi. Bularning barchasi Hazrat Alisher Navoiyga bo'lgan yuksak ehtirom va e'tiborning yorqin dalilidir.

Ul zotni qancha qadrlasak, qancha eslasak shuncha kamdir. Shuncha hurmat, shuncha e'tibor barchasi Navoiy hazratlarigadir. Har eslaganimda bolalik yillarim esimga tushadi. O'quvchi edim, onam bilan Navoiy haykali ostiga gul qo'ygani bordik. Tavallud kunlari ekan va qandaydir tadbir bo'layotgan ekan, tomosha qilib qoldik. Kun sovuq, lekin hamma yig'ilgan. Tantanali boshlangan tadbirda Ul zot hayoti va ijodi haqida gapirishdi, g'azallaridan talaba yoshlar o'qishdi. Afg'onistondan tashrif buyurgan mehmonlar ham bor ekan. Navoiyni eslash uchun navbat ularga so'z berildi. So'zga chiqqan ayol kishi ekan:

- Bugun Mir Alisher hazratlarining tavallud kunlari. Ul zotni barchangiz yaxshi ko'rar ekansiz. Shoirni eslaganingiz uchun, ul zotni yod etganingiz uchun sizlarga minnatdorchilik bildiraman. Alisher hazatlari bizning bobomiz! Sizlar ham eslaganingiz uchun rahmat. Afg'on elining buyuk shoiri, afg'on farzandiga bo'lgan hurmat va ehtirom uchun rahmat. Afg'on bobosini eslaganlaring bu bizga, afg'on xalqiga bo'lgan hurmatdir.

So'zining oxirida Navoiyning bir g'azalidan parchani xunuk qilib o'qidi. So'zga chiqqan talabalar ham afg'on tiliga yaqinroq qilib so'zlashdi, ruboiylarini afg'on tiliga moslab o'qishdi. Shu tarzda tadbir tugadi. Boshimda esa ming hayol, o'y bosdi. Uyga kelgunimizcha faqat bir savol meni qiynardi: nahot Navoiy afg'on bo'lsa? Nahotki bizning bobomiz degan zot bizga begona bo'lsa? Nahotki eslaganimiz uchun, o'rganganimiz uchun rahmat aytsa? Biz Navoiy avlodlari emasmizmi?

Uyga keldim va meni o'ylantirgan barcha savollarni onamga berdim:

- Oyi, Navoiy afg'onmi? O'zbek emasmi? Nega biz shunchalik e'zozlaymiz? Navoiy bizning bobomiz emasmi?

- Navoiy bobomiz o'zbek bo'lgan, qizim. Hirotda tug'ilgani ham rost. Husayn Bayqaroning do'sti bo'lgan. Temuriylar saltanatining bir qismi ham Hirotni tashkil qilgan. Navoiy sening ham bobong, sen ham uning avlodisan qizim..

dedilar onam. Baribir o'sha savollar meni bir necha yillar o‘ylantirdi. Savollarning aniq javoblariga qiziqdim va kitoblardan o‘qib o'rgandim. Tarixiy kitoblardan shuni bilib oldim:

Amir Temurdan keyin saltanat 2 ga bo'linib ketadi: Movarounnahr va Xurusonga. Xurosonni esa Temuriyzoda Huasayn Bayqaro ko‘p yillar boshqargan. Alisher Navoiy ajdodlari esa Temuriylarga yaqin bo'lib, emakdosh bo'lishgan. Taxtga o‘tirgan Husayn Bayqaro Navoiyni eng yaqin insoni sifatida Samarqanddan taklif etgan. Navoiy Samarqandda ilm olgan. Ilk devoni ham Samarqandlik muxlislari tomonidan yaratilgan. Navoiy bobomiz ham Samarqandni " Jannatmonand yurt!" Deb ataganlar. Bu joylarga mehrlari baland bo‘lgan. Hirotga qaytib muhrdorlik, vazirlik lavozimlarida ishlaganlar. Yoshlikdan boshlangan do'stlik umrbod davom etgan. Navoiy ijodini o‘rgandim, uning g‘azallaridan yod oldim, asarlarini o‘qidim. Yaqin do‘sti Husayn Bayqaroning taxtga o‘tirishi munosabati bilan " Hiloliya" (" To‘lin oy") qasidasini yozgan. 7 ta devoni mavjud . Forsiy tilda ham devon tuzgan ekanlar. Navoiy " Xamsa" asari menga juda yoqdi. Negaki, unda haqiqiy komil inson sifati yorqin aks etgan. Oliy himmatlilik, ezguliklar ufurib turadi. Navoiy bilan, hattoki, Temuriylar shohi Husayn Bayqaro ham birga ijod qilgan. Yozgan g‘azali va ruboiylarini Navoiyga ko‘rsatgan. Navoiy asarlarining chek chegarasi yo'q. Qancha o‘rgansak ham kam.

Navoiydan o'rganish kerak bo'lgan bir jihati menga juda-juda ham yoqdi. Ul zot shunchalik oliy himmat, sahovatli inson bo‘lganlarki, doimo xalqni o‘ylab, xalqning g‘amida, uning dardi bilan yashagan. Barcha qilgan ezgu amallari xalq uchun, inson ichun bo‘lgan. Navoiy xonadonida har kuni och, yupunlar uchun to‘xtovsiz taomlar pishirilgan. Ro‘zadorlarni, xaqlni ovqatlantirgan. Ilm oluvchilar uchun esa masjid, madrasa, xonagohlar qurdirtirgan. Xalq uchun o‘z hisobidan kanal qazdirib suv keltirgan. Bozorlarda , savdo rastalarida savdogarlar mahsulot va oziq-ovqatlarni sotishgan. Karvonlar to‘xtashlari uchun rabotlarni bunyod ettirgan. Qilgan savob ishlarining ijodi kabi cheki yoq. Savob talab inson bo’lgan. Chin musilmon farzandi bo'lgan. Doimo adolatli bo'lishga da'vat etgan.

Navoiy bobomni o'qishda davom etyapman. Men uning avlodi ekanligimdan faxr va g‘ururni his qilaman. Hozir bemalol aytishim mumkin - Navoiy bizning bobomiz! Men savollarimga javobni topdim!

Yurtimizdan unga mos avlodlar chiqishini, u qilgan savob ishlarini davom ettirishini istayman.

Keling azizlar, Navoiyni o‘rganishni davom etaylik! Ruhlari shod bo‘lsin! Butun bir Turkistonning bobosi Mir Alisher Navoiy hazratlarini avlodlarimiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Til va adabiyot ilmiy jurnali. Toshkent – 2016
2. 8 – 9 sinf adabiyot darsliklari
3. 8- sinf tarix darligi
4. 9 -10 sinf adabiyot darsliklari